



## NEMIS TILIDA "DO'STLIK" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Atamurodova Dilfuza Toshmurodovna

Qarshi davlat universiteti doktoranti

dilfuza\_atamurodova@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8047069>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> June 2023

Online: 16<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

*Konsept, milliy xarakter, milliy va madaniy belgilar, milliy spetsifika.*

### ABSTRACT

*Bugungi kun zamonaviy tilshunosliging dolzarb hamda to'liq o'rganilmagan mavzularidan biri bu –konseptdir. Bu termin lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning eng muhim kategoriyalaridan biri bo'lib bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsada bir fikrga kelinmagan. Ushbu maqola nemis tilidagi "do'stlik" konseptining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy maqsad - barcha millatlarda asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan "Do'stlik" konseptining milliy o'ziga xoslik jihatlarini o'rganish va aniqlashdir.*

Bugungi kunda "konsept" atamasining aniq ta'rifi mavjud emas, chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta semantik va kognitiv tilshunoslik, hamda lingvokulturologiya kabi tilshunoslik sohalarini qamrab oladi. "Konsept" tushunchasi lingvistik shakl jihatidan boshqa atamalarga o'xshaydi. Hatto "Lingvistik ensiklopedik lug'at" da ham "Konsept" tushunchaning ta'rifi yo'q, ko'pgina olimlar buni "Tushuncha" atamasining sinonimi deb ham hisoblashadi.

Ba'zi tadqiqotchilar konseptni bir xil turdagi tushunchalarning ma'lum bir to'plamini umumlashtiradigan mavhum shakllanish deb hisoblashadi. Boshqalar esa "konsept" va "tushuncha" atamaları teng emas deb hisoblashadi.

Konseptga olimlarning yondashuvi va ta'riflari turlichadir, lekin biz qisqa va tushunarli bo'lgan Sh. Safarovning fikrini ma'qul deb bildik: "Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi." Biz siz bilan muhokama qilmoqchi bo'lgan "do'stlik" konsepti ham barcha tillarda mavjud muhim konseptlardan biridir.

So'nggi paytlarda "do'stlik" konseptini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu 20-asrning oxiriga kelib tilshunoslar, faylasuflar, lingvokulturologlar va psixologlarning qiziqishini ham oshirdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lingvokulturologiyada ushbu konsept yetarli darajada o'rganilmagan va aniqlanmagan tushunchalardan biridir. Ushbu konsept shaxsning ichki, ma'naviy hayoti, ma'naviy-axloqiy o'lchovlarining murakkab tizimini aks ettiradi.

Do'stlik so'zi tor ma'noda ikki inson o'rtasidagi munosabat bo'lsa, keng ma'noda oilalar, qishloqlar, qarindoshlar va yurtlar o'rtasidagi iliq munosabatni ham bildiradi. "Do'stlik"ning



eng muhim fazilatlarini bu samimiylik, rostgo'ylik, vafo va albatta, sadoqat hisoblaniladi. Bu to'g'risida bizning tilimizda salmoqli ijodnamularini uchratish mumkin. Birgina A.Navoiy do'stlikni ulug'lab ko'plab misralar ijod qilgan. Do'stsiz insonni qurigan daraxtga, joni yo'q tuproqqa tenglagan.

Do'stlik shunday bir ulug' ne'matki, u insonni ruhiy va jismoniy kamolotga boshlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan konsept o'rganilayotgan etnosning lisoniy tasavvurida muhim o'rin tutadi, chunki u xalqning etnik xarakterini aks ettiruvchi asosiy konseptlardan biri hisoblanadi. Turli jamiyat va millatlarning bu tushunchaga o'z qarshilari mavjud.

Do'stlik milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, u "milliy xarakter" kabi tushunchada. Tilshunos S.Mo'minov milliy xarakter to'g'risida shunday fikr bildiradi: «Milliy xarakterda xalqning "Muloqot xulqi" aks etadi, milliy xarakterni o'rganmay turib, mutlaqo muloqot o'rganib bo'lmaydi. Milliy xarakter deganda ma'lum ijtimoiy guruh (millat) o'rtasida asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklarmajmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sig'inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarsi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi.

Konseptning lingvokulturologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz mashxo'r siyosat va jamoat arboblari hamda dunyoga mashhur shaxslarining nemis tilidagi "do'stlik" leksemali fikrlarini tahlil qildik. Chastotali tahlil qilish usulidan foydalanib, ushbu konseptni nemis tilida qo'llash asosida yuzaga keladigan asosiy tasvirlar aniqlandi.

Do'stlik - bu aniq, ob'ektiv mavjud bo'lgan ob'ekt yoki hodisani emas, balki odam tomonidan to'liq tushunib va tushuntirib bo'lmaydigan mavhumlik, tuyg'u, hissiy holatni nomlaydigan murakkab ijtimoiy tushuncha bo'lib, o'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Kishilarning muloqot shakli sifatidagi do'stlik qonqardoshlik, o'rtoqlik, birodarlik tushunchalariga yaqin, lekin psixologik nuqtai nazardan esa ulardan o'zining alohidaligi, tanlash xususiyati, his-tuyg'usi bilan farq qiladi.

Quyida biz ushbu tushunchani nemis millati muloqot xulqida aks etib turuvchi asosiy xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

Eng ko'p uchraydigan "Do'stlik" tasviri -bu do'stlikning hayotning ajralmas bir qismi sifatidagi tasviridir.

"Freundschaft, das ist eine Seele in zwei Körpern." (Aristoteles)

„Do'stlik bu ikki tandagi bir jondir“ (Aristotel)

„Ein bisschen Freundschaft ist mir mehr wert als die Bewunderung der ganzen Welt.“ (Otto von Bismarck)

"Kichik do'stlik men uchun butun dunyoning ajoyibotlaridanda azizroq".(Otto fon Bismark)

"Mein Freund, ich brauche dich wie eine Hohe in der man anders atmet" (Goethe).

"Do'stim, sen menga havo kabi keraksan" (Gyote).

Bu tasvirida do'stlikka hayotning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Germaniyada do'stlik juda jiddiy qabul qilinadi: Do'stlik boshqalardan, shu jumladan oilaviy munosabatlardan ham muhimroq mustahkam aloqa sifatida baholanadi.

Shuning uchun nemis tilida so'zlashuvchi jamiyatda do'st abadiydir va do'stlar har bir insonning hayotida katta rol o'ynaydi, deb ishoniladi.



Ikkinchi eng ko'p uchraydigan tasvir - qo'llab-quvvatlovchi do'stlikdir . Bu nemislarni qiyin vaziyatlarda do'stlarining yordamiga tayanishlarini ko'rsatadi. Do'stning qo'llab-quvvatlashi va yordami nemis millati vakillari uchun do'stlikning muhim belgilaridan biridir. Do'stlik qanchalik mustahkam bo'lsa, odam uning oldida qalbini kengroq ochadi. Ko'pgina nemislar uchun do'stlikning kuchi ikki do'stning fazilati bilan o'lchanadi, chunki haqiqiy do'st har qanday holatda ham do'stdir, bu quyidagi misollarda ko'rsatilgan:

"Freundschaft besteht darin, dass man einander nie im Stich lässt" (Hannelore Kohl).  
"Do'st seni hech qachon ogir kuningda tashlab ketmaydi" yoki „Do'st kulfatda bilinar,“ (Gannalor Kohl).

"Freundschaft: ein Schiff, groß genug, um bei gutem Wetter ein Mensch, bei schlechtem aber zweien zu tragen" (Marlen Ditrix). "Do'stlik - bu katta kema, uning bortida yaxshi ob-havoda bir kishi, yomon ob-havoda esa ikki kishi bo'lishi mumkin" (Marlen Ditrix).

Ba'zi holatlarda "do'stlik" konseptining tasviri sifatida dushmanlik ("Feindschaft") ifodalanadi. Germaniyada kamdan kam odam do'stlikni dushmanlik bilan bog'laydi.

Qizig'i shundaki, ba'zi nemislar haqiqiy do'stlar yo'qligiga ishonishadi va agar mavjud bo'lsa, demak, bu faqat o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan va har qanday vaqtda sizga xiyonat qilishi mumkin bo'lgan odamlardir.

"Freundschaft: die stillschweigende Übereinkunft zweier Feinde, die für gemeinsame Beute arbeiten wollen." (Kristin Nöstlinger)

"Do'stlik - bu bir maqsadda bo'lgan ikki dushman o'rtasidagi yashirin kelishuv" (Kristin Nöstlinger).

"Freundschaft zweier Frauen: meistens nur die Verschwörung gegen eine dritte!" (Georg Kreysler).

"Ikki ayolning do'stligi ko'pincha uchinchisiga qarshi fitnadir!" (Jorj Krisler).

Do'stlik juda nozik, buzilgan do'stlikni tiklash sevgidan ko'ra qiyinroq, chunki sevgida uzilgan rishtalarni tiklash istagi bo'ladi. Yo'qotilgan ishonchni qayta qozonish esa juda qiyin.

"Auf Freunde, die dich verraten haben, im Unglück rechne nie!" (Renate Grosser). "Hech qachon sizga xiyonat qilgan do'stlaringizga ishonmang" (Renata Grosser).

"Laute Freunde sind oft leise Feinde" (Kerolin Link).

"Shovqinli do'stlar ko'pincha tinch dushmanlar bo'lishadi" (Kerolin Link).

Shuningdek "do'stlik" tushunchasining tasviri sifatida o'xshashlik, umumiylik (Ähnlichkeit) ham mavjuddir.

Aksariyat nemislar do'stlarni o'z tarafdorlari, hamfikrlar, umumiy manfaatlar bilan birlashgan odamlar deb xisoblashadi.

"Gleichheit ist die Seele der Freundschaft" (Andrea Dittrich).

"Manfaatlar birlashuvi har qanday do'stlikning asosidir" (Andrea Ditrix).

"Dasselbe wollen und dasselbe nichtwollen. Das erst ist feste Freundschaft" (Remark).

"Mustahkam do'stlik - bu bir xil ishtiyoq, bir xil istak, bir xil afzallik" (Remark).

Qiziqishlar, hayotiy qadriyatlarining o'xshashligi nemislar uchun do'stlikning ustunliklaridan biridir.

Qizig'i shundaki, nemis tilidagi "do'stlik" tushunchasini o'rganish natijasida hisob-kitob sifatidagi milliy o'ziga xos do'stlik tasviri ("Vorteil") aniqlandi, buning sabablaridan biri erkaklar va ayollarning hayotiy qadriyatlari va ijtimoiy mavqeining o'zgarishi, deb



hisoblaymiz. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda qadriyatlar va madaniy me'yorlar o'zgaradi. Ayollarning jamiyatdagi o'rni muhim va salmoqli bo'lib bormoqda.

"Ein wahrer Freund ist jemand, der dir Geld leiht und dann das Zeitliche segnet" (Susanne Schwalb). "Haqiqiy do'st har doim sizga qarz berishi mumkin, lekin shu bilan birga qarz haqida unutmaydi ham" (Suzanne Shvalb).

"Freundschaft: die stillschweigende Übereinkunft zweier Feinde, die für gemeinsame Beute arbeiten wollen. „ Elbert Hubbard

Do'stlik: umumiy foyda uchun ishlashni xohlaydigan ikki dushmanning so'zsiz kelishuvidir. Elbert Hubbard

"Eine Freundschaft, die sich aufs Geschäft gründet ist besser als ein Geschäft, das sich auf Freundschaft gründet" (Michaela Perlmann Balme). "Biznesga asoslangan do'stlik do'stlikka asoslangan biznesdan yaxshiroqdir" (Michaela Perlmann Balme).

Ushbu sitatalar shuni ko'rsatadiki, nemislar do'stlikni fazilatdan ko'ra shaxsiy manfaatlar bilan bog'laydilar va ba'zan "do'stlik" sof ishbilarmonlik xarakteriga egadir.

"Do'stlik" tushunchasining yaqinlik - "Vertraulichkeit", birodarlik munosabatlari - "Brüderlichkeit" va muloqot - "Verkehr" kabi tasvirlari anchayin kam uchraydi.

"Die Ehe ist eine polizeilich anerkannte Freundschaft" (Piter Seeger).

"Nikoh - bu ikki kishining do'stligi" (Piter Seeger).

Do'stlikning mustahkamligi ikki do'stning yaxshi fazilatlarini bilan o'lchanadi. Do'st - bu bizning muammolarimiz va baxtsizliklarimiz haqidagi cheksiz xikoyani sabr bilan tinglay oladigan odam.

"Ein Freund ist ein Mensch, vor dem man laut denken kann" (Goethe).

"Do'st - bu biz qalban butunlay ishona oladigan odam" (Gyote).

Do'stona muloqot har bir inson uchun zarur, chunki do'st bilan biz ochiq va samimiy bo'lishimiz mumkin.

"Freundschaft erlaubt dem anderen unangenehme Dinge zu sagen" (Marlen Dittrich).

"Do'stimiz bilan biz samimiy gaplasha olamiz" (Marlen Dittrich).

Xulosa qilish mumkinki, nemislar do'stlikni nafaqat o'zaro yordam, balki o'zaro yaqinlik, samimiylik, ishonch, sevgini ham o'z ichiga olgan chuqur va yaqin munosabatlar bilan bog'laydilar. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, do'stlikning lingvistik konseptualizatsiyasi uning muhim belgilari va qismlarini tushunish bo'lib, u tegishli til birliklari shaklida ifodalanadi.

"Do'stlik" insonning ichki dunyosi, uning ichki hayotining bir parchasi sifatida madaniyat va jamiyat taraqqiyoti tarixida hayotning asosiy jihatlaridan biri sifatida tushunilgan va tushuniladi, deb aytishga to'liq asoslar bor. Inson munosabatlaridagi asosiy omillar, bu do'stlikning tushunchasining lingvistik konseptualizatsiyasida ham o'z aksini topadi.

Tanlangan tasvirlar asosida "Do'stlik"(Freundschaft) ma'nosiga ega lingvomadaniy birliklarning til korpusi aniqlandi. Ushbu birliklarning tahlili ulardan foydalanish xususiyatlarini, shuningdek, nemis tilida so'zlashuvchi etnik-madaniy jamiyatda tahlil qilingan konseptni talqin qilish bilan bog'liq dominantlarini aniqlashga imkon berdi: bular odamlar o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlar, o'zaro munosabatlar, mehr, hurmat va ishonch, o'zaro tushunish, samimiylik, o'zaro yordam, hamdardlik, fidoyilik va sevgidir.



## References:

1. М. Ф. Хаметова Вестник Челябинского государственного университета. 2009. № 30 (168). Филология. Искусствоведение. Вып. 35. С. 148–151
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010.
3. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. Учебное пособие. – М. : Наука, 2009.
4. Воркачёв С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. -№ 1. –С. 64-72.
5. Шаклеин В. М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. –М., 2012.
6. Залевская А. А. Вопросы теории и практики межкультурных исследований // Этнокультурная специфика языкового сознания: Сб. ст. / Отв.ред. Н. В. Уфимцева. М.: Ин-т языкознания РАН, 1996. С. 23-35.
7. Красавский Н. А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах: Моногр. Волгоград: Перемена, 2001. 495 с.
8. Пименов Е. А. Концепт HOFFNUNG (НАДЕЖДА) в немецкой Языковой картине мира // Мир человека и мир языка: Коллект. моногр. Кемерово: ИПК «Графика», 2003. С. 266-275.
9. Duden - Duden, „Das große Wörterbuch der deutschen Sprache“: in zehn Bänden. 3., völlig neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Mannheim/Leipzig/Vien/Zurich :Dudenverlag, 1999. Bande 1-10.